XALQ DEPUTATLARI KOGON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 21-aprel VII-07-43-2-36-K/25 Kogon tumani

Kogon tumanida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlaridan samarali foydalanish va ijara shartnomalarini tuzish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 24 va 242-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 8 iyundagi PF-6243-son Farmonining 14-bandi, “Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishda dexqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 23 noyabrdagi PQ-20-son qarori qabul qilingan bo‘lib, ushbu qarorning ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18 yanvar 2024 yildagi PF 15-sonli Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi farmoni qabul qilingan.

Buxoro viloyat Kogon tuman Beklar MFY Ziyo Qobilov massivida olib borilgan o‘rganishlar natijasiga ko‘ra Kogon Xasanbobo bog‘i fermer xo‘jaligida Kogon tuman hokimining 30.12.2019-yildagi № 5190 sonli qaroriga asosan 6400 kontur qismidan jami 1 gektar yer maydonlari ajratib berilgan, ijara shartnomasi tuzilib davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan, ammo foydalanishidagi bog‘ yer maydonlari amalda 1.40 gektar ekanligi 0.40 gektar yer maydonlari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmaganligi aniqlandi,

Bandlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18 yanvar 2024 yildagi PF 15-sonli qarorining 5-v bandlariga asosan Xalq deputatlar Kogon tuman Kengashiga kelishish uchun kiritildi. Buxoro viloyat Kogon tuman O‘rta Cho‘l MFY Sh.Rashidov massivida olib borilgan o‘rganishlar natijasiga ko‘ra Akmal parranda MChJda Kogon tuman hokimining 17.05.2019-yildagi № 1385 sonli qaroriga asosan 231, 232-kontur kesimida jami 6.7 gektar yer maydonlari doimiy foydalanish uchun ajratib berilgan, ammo ushbu yer maydoni Vazirlar Maxkamasining 2018-yil 23-apreldagi № 299-sonli MA’MURIY-HUDUDIY BIRLIKLAR CHEGARALARINI BELGILASH, YER RESURSLARINI XATLOVDAN O‘TKAZISH HAMDA YAYLOV VA PICHANZORLARDA GEOBOTANIK TADQIQOTLARNI O‘TKAZISH TARTIBINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA qaroriga asosan Kogon tumanida o‘tkazilan xatlov o‘lchov natijalariga ko‘ra 8600-kontur raqami bilan belgilanib jami yer maydoni 6.97 gektar

qilib belgilangan ijara shartnomasi tuzilmagan va davlat ro‘yxatidan ro‘yxatidan o‘tkazilmaganligi aniqlandi,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18 yanvar 2024 yildagi PF 15-sonli Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi farmoni qabul qilingan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xalq deputatlari Kogon tuman Kengashi

QAROR QILDI:

1. Xalq deputatlari Kogon tuman Kengashining 2024-yil 21-noyabr kunidagi VII-02-14-2-36-K/24-sonli qarori bekor qilinsin.

2. Kogon tumanida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yermaydonlaridan samarali foydalanish va ijara shartnomalarini tuzish tuman Kengashi deputatlaridan iborat ishchi guruhi rahbarining o‘rinbosari Z.Mavlonovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimligi va Ishchi guruhi tumanda **8,37** gektar yer uchastkalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi, Ijara to‘g‘risidagi Qonuni talablari asosida tuman hokimi va yerdan foydalanuvchi o‘rtasida yer ijara shartnomasini tuzish (yer ijara shartnomasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish) choralarini ko‘risin.

- tuman hokimligi qonunchilikda belgilangan tartibga qat’iy rioya etgan holda ushbu ilovaga muvofiq yer uchastkalari bo‘yicha tuman hokimi va yerdan foydalanuvchilar o‘rtasida yer ijara shartnomasini tuzish (yer ijara shartnomasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish) vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i F.Otamurodov, Davlat Kadastrlar palatasi tuman filiali boshlig‘i X.Baqoyev ushbu qaror ilovasiga asosan ijara shartnomasi tuziladigan (qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritiladigan) yerdan foydalanuvchilar bo‘yicha yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish hamda davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni nazoratga olsin.

5. Kadastr agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i X.Baqoyev:

- belgilangan muddatda ilovadagi yerdan foydalanuvchilar (qishloq xo‘jaligi korxonalari rahbarlari)ni xabardor qilsin;
- mazkur qarorning ijrosini ta’minlash borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida Xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot kiritib borsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari F.Otamurodov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi

QAZOQOV OTABEK NODIROVICH

Xalq deputatlari Kogon tumani
Kengashining
2025-yil 21-apreldagi
VII-07-43-2-36-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер майдонларини самарали фойдаланиш
ва ижара шартномаларини тузиш

МАЪЛУМОТ

1-илова

№	фермер хўжалиги номи	Контур рақами	Жами ер майдонига	Шундан		
				Экин ер майдонига	бўз ер майдонига	бошқалар
1	Когон Хасанбобо боғи	6400	1,40	1,40		
2	Акмал парранда	8600	6,97	6,97		
2	**жами**		**8,37**	**8,37**	**0,00**	**0,00**